



EDUCATION OF DEVELOPED GENERATION IN UZBEK FAMILIES

Maxmudov Shokir Kamolovich¹, Ergasheva Oyjamol², Abdiyeva Nazira Mardana qizi³

¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

² Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim 1- kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4881554>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021
Accepted: 25th May 2021
Online: 30th May 2021

KEY WORDS

morality, duty, potential, family, upbringing, development, spirituality, tradition, environment, heritage.

ABSTRACT

The article presents the features of raising a harmoniously developed generation in Uzbek families, national traditions formed over the centuries, respect, mutual support of relatives, customs, recommendations for the upbringing of the younger generation.

O'ZBEK OILALARIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI

Maxmudov Shokir Kamolovich¹, Ergasheva Oyjamol², Abdiyeva Nazira Mardana qizi³

^{1,2} Senior Lecturer of the Department of Primary Education Methodology of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021
Ma'qullandi: 25-May 2021
Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

axloq, burch, salohiyatli, oila, tarbiya, taraqqiyot, ma'naviyat, urf-odat, muhit, meros.

ANNOTATSIYA

Maqolada, o'zbek oilalarida barkamol avlodni tarbiyalashdagi xususiyatlar asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analar, hurmat, qarindoshlarning bir-biriga yordami, urf-odatlar, yosh avlodni tarbiyalashga doir tavsiyalar berilgan.

“...“Oqqan daryo – oqaveradi”, deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona

foydalana olishimizga bog'liq.” **Sh. M. Mirziyoev**

Oila va turmush davlatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy huquqiy hujjatlardan tashqari vijdon qonunlari asosida quriladi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy



farovonligi to'g'risida emas balki, oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarini, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir. Bu borada buyuk bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Imom at-Termeziyning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi buyuk g'oyalari, hikmatlari katta o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqlarida «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.»- deb aytganlari Har bir oila masuliyat bilan farzandlarga sharoit yaratish vazifasini yuklaydi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbek oilalarida barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni benihoyat katta. Bu yerda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analar, ota-onalar va bolalarning o'zaro hamkorligi va hurmati, qarindoshlarning bir-biriga yordam qo'lini cho'zshlari, oilaviy pokizalik talablarini saqlanishi kabi urf-odatlar, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyati va axloqi uchun negizga aylanadi, maishiy- madaniy turmushning asosiy tushunchalari va qoidalari

xalqimizning urf-odatlari, marosimlari va rasm-rusumlari mustahkam qo'rg'ondagidek saqlanib qoladi va avloddan-avlodga yetkazib beriladi. Bugungi kunda sog'lom, aqlli, bilimli, tashabbuskor, fidoiy yoshlarni oila muhitida tarbiyalash dolzarb vazifadir.

Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ular ota-bobolar va momolardan meros qolan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zamirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyanadi.

Oilada bolalarning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib, o'sishida oila muhitining ta'siri kattadir. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy vazifasi, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan, har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bilan bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, zukko, ruhan va ma'naviy barkamol insonni voyaga yetkazish, shuningdek, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish, giyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi. Ayniqsa, o'smirlik davrida bolalarga ota-onaning mehribonligi, doimiy nazorati va do'stona maslahati katta ahamiyatga ega. Lekin juda ko'p salbiy xususiyatlar ota-onaning muruvvatidan, erkalashidan, e'tiboridan mahrum bo'lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun ham bola uni sevishlariga, g'amxo'rlik



ko`rsatishga, ishonch hosil qilishlariga ehtiyojli bo`ladi. Ota-ona bu muhim vazifani to`g`ri anglashi lozim.

Bu davrda bola juda tez aytgan fikrlarni o`zlashtiradi va o`ziga xos holda ulardan foydalanadi. Ota-onalar qaror qabul qilishda birinchi o`ringa o`zlarini qarashlarini emas, balki bolaga foyda keltirish va uning istaklarini o`ylashlari kerak.

Kattalar va bolalar o`rtasidagi muloqotda quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Bolani qanday bo`lsa, shunday holda qabul qilish kerak.

2. Kattalar bolalar ko`zi bilan muammolarga qarashlari lozim.

3. Vujudga keladigan holatlarini ko`ra bilishlari kerak.

4. Farzandlariga muammoning yechimini tushinarli holda yetkazishlari lozim.

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli tumandir. Ulardan biri ota-onalarning haddan tashqari obro`talabliklari, xukmronlikka intilishlaridir. Bolaning nazorat ostiga olininishining kuchliligi, uning xulqidagi mustaqillikni yo`qqa chiqariladi. Bolada o`z kuchiga va imkoniyatlariga ishonch yo`qoladi. Ichki istak va intilishlar doirasidagi faoliyat shakllanmasdan, itoat qilish talablari asosida harakatlanib mustaqillik yuqoladi.

O`zbek oilasi qadimdan ezgulik va sadoqat, ahillik va poklik timsoli bo`lib shakllangan va bugungi kungacha xalqimiz bu an`anani muqaddas saqlagan holda asrlar silsilasidan o`ta oldi. O`zbek oilasida an`anaviy tarbiya hamisha bosh mezon bo`lib kelgan va undagi ma`naviy muhit muhim o`rin tutadi. Shaxs ma`naviyati, uning dunyoqarashi, tasavvur va e`tiqodiga oid ko`nikmalar asosan oila sharoitida

shakllanadi. Oila ibrat maktabi, tarbiya va ma`naviyat o`chog`i, g`oyaviy tarbiyaning omilidir.

Oiladagi ma`naviy muhitni shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri mahallada tashkil etiladigan tadbirlarda, yaxshilik va og`ir kunlarda mahalladoshlar orasida bo`ladigan oqibatli ishlardan farzandlarni ogoh etish va ularning yoshlariga va jinslariga qarab tadbirlarda ishtirok etishlarini ta`minlashdan iboratdir. Umuman olganda o`zbek oilasi hamisha ma`naviy tarbiyaga alohida e`tibor berilgan holda odob doirasidagi ko`rinishlarda tarbiya mezoniga tayanadi. O`zbek oilasida ma`naviy tarbiyani shakllantirish va unga alohida e`tibor berish hamisha bosh vazifa bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

Shavkat Mirziyoevning O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016 yil 14 sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko`prog`i yoshlardan iborat bo`lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o`z qat`iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo`lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg`ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O`zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o`rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining poydevori bo`lmish yoshlarni tarbiyasida oilalardagi ma`naviy qadriyatlarimizning o`rni



beqiyosdir. Ishonaman O'zbek oilalari komil
inson tarbiyasida o'z hissalarini qo'shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.- B. 570.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 2020.
3. A. Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”. T.: “Ma'naviyat” 1998.